

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI
O'QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami**

2024-yil 17-may

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

17 мая 2024 года

**Collection of materials of the international scientific and practical conference
PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

May 17, 2024

Guliston – 2024

qilindi. Yuqorida keltirgan terminlarning barchasi ham to‘la holda izohlab o‘tilgani yo‘q, chunki terminlarning ba’zilari aniq tushunchani ifodalagani uchun ham aynan izoh talab qilinishiga ehtiyoj sezilgan terminlarni keltirib o‘tishni muvofiq deb topdik.

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida leksemalarni tushuncha asosida uyalarga bo‘lib o‘rganishda ancha yutuqlarga erishilgan. Tinchlik hukmron surayotgan

mamlakatimizda yosh avlod uchun harbiy terminlar ishtirok etuvchi asarlarni o‘qish jarayonida atamalarning ma’nosini aniq va tushunarli bo‘lishini ta’minalash maqsadida ushbu terminlarning ba’zilarini izohi bilan berilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Bundan tashqari ularni tadqiq etishda boshqa til hodisalari bilan taqqoslab o‘rganish hamda uyadosh so‘zlarning mukammal lug‘atini tuzish tilshunoslik sohasining dolzarb masalasidir.

Adabiyotlar

1. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
2. Yusupov Sh. Kafansiz ko‘milganlar. – Toshkent, Sharq, 2007.
3. Zokirov Sh. Z. Yuridik atamalar lug‘ati va ularning tarixi.
4. Dolimov Sh. Z. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2007.
5. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.

ABDULHAMID CHO‘LPONNING KECHA VA KUNDUZ ROMANI HAQIDA BADIY TASVIR VOSITALARI

*Qahramanova Maftuna Tuyg‘un qizi, talaba, Chirchiq davlat pedagogika
universiteti*

alaxonhasanova@gmail.com

Annotatsiya. Kecha va kunduz -O‘zbek yozuvchisi Abdulhamid Cho‘lpon tomonidan yozilgan roman. Bu asarga “O‘tkan kunlar asari darajasida“ deb baho berilgan. U o‘zbek adabiyotidagi ilk roman - dilogiya bo‘lib, ikki kitobdan iborat. Birinchi qismi “Kecha” 1933-1934 yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935-yilda Toshkentdagi adabiy jurnalning 1-sonida bosingan, asar 1936-yilda to‘liq holda nashr etilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho‘lpon romaniga “Hamal keldi – amal keldi” maqolini epigraf qilib olgan.

Kecha qismi: “Kecha va Kunduz” romanining faqat “Kecha” qismi mavjud. Olimlarning taxminicha, Cho‘lpon «Kunduz» qismini ham rejalashtirgan yoki yozgan bo‘lishi ham mumkin. Dilogiyaning to‘liq emasligi olimlarga Cho‘lponning maqsadi haqida taxmin qilish imkoniyatini beradi.

Ba’zi olimlar Cho‘lpon faqat “Kecha”ni yozgan, “Kunduz” qismi borligi haqidagi mulohazalar sovet kuzatuvchilarini mammun qilish uchun aytilgan deyishadi. Boshqalari esa Cho‘lpon «Kunduz»ni ham yozgan, lekin NKVD uni hibsga olishganda asar musodara qilinib, yo‘q qilingan deb hisoblashadi.

“Kecha va Kunduz” romanida xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan barcha ziddiyatlar, adibning bor orzulari ifodalangan. Unda mehnatkash xalqning, xususan, xotin-qizlarning og‘ir kulfatu, mashaqqatlarga to‘liq hayoti jonli voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta’sirli va ishonarli tasvirlangan. Asardagi asosiy ijobjiy qahramonlardan biri bo‘lgan go‘zal va xushovoz, sodda va huquqsiz Zebi timsoli fikrimizni dalillaydi . Muallif Zebi taqdirida, Razzoq so‘fi va Qurbonbibi taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojeali hayotini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: qahramonlar, taqdir, jonli voqealar, ziddiyatlar, jamiyat hayoti.

Kirish. Adabiyot insonning ruhiy olamini, ma‘naviyatini shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Cho‘lpon ta‘biri bilan aytganda - Adabiyot chin ma‘nosi ila O‘lgan, so‘ngan, ..., o‘chgan, ,majruh, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o‘tkir yurak kirlarini yuvadurgan toza ma‘rifat suvi, chang va tuproqlar to‘lgan ko‘zlarimizni artib, tozalaydiga buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir.

Asosiy qism. Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani yaratilganiga qariyb 80 yil bo‘lsa-da, u hamon qo‘ldan-qo‘lga o‘tib kelmoqda. Mazkur asar ikki qisimdan iborat bo‘lib, –dastlabki “Kecha” deb nomlangani qo‘lingizdagи kitobda aks etadi. “Bugun” deb atalgan ikkinchi qismi haqida esa ma’lumotlar yo‘q. Kitobda o‘zbeklarga xos andisha , himmat , iffat va soddalik kabi fazilatlar bilan birga xotinbozlik va mol-mulk orttirish yo‘lidagi illatlar ham o‘z intiqosini topgan. Bu kabi sifatlarva illatlar kitobxonni chuqur mushohada yuritishga undaydi. Cho‘lpon dunyosi, uning olami, ijodidagi nafislik va serjilolik siz azizlarga manzur bo‘ladi, degan umiddamiz. Asar yoshlarning milliy ma‘naviyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi [1].

Adabiyot mudroq qalblarni hushyorlik suvi bilan sug‘orib, hayot ilmini uqmoqlikka ko‘maklashadi. O‘tmishdan sado beradi, ma‘naviy kemtikliklarni to‘ldiradi. Insonda odob-axloq, mehr-muhabbat, vafo, sadoqat, ezgulik hislatlarini mustahkamlaydi, ilmsiz, bemehr, tarbiyasiz odamlarga nisbatan nafrat tuyg‘usini uyg‘otadi. Badiiy asarni o‘qish davomida o‘quvchi qalbida his-tuyg ‘ular charxlanib, sayqallanib boradi. Shu boisdan ham adabiyotga oshno ko‘ngildan hech qachon yomonlik chiqmaydi.Ulug‘ mutafakkirlar har qachon avlodlarni o‘qimaklikka, ilmli bo‘lmaklikka chorlab kelgan.

Misol tariqasida, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning quyidagi so‘zlarini keltirishimiz mumkin: - Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o‘quylik. Adiblar yetishdirayluk, «adabiyot kechalari» yasayluk. Ruh, his-tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk. Agarda «bayoz» va bema‘ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo‘lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig’ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk...

Asarda o‘tmish jamiyatdagi sinfiy qarama-qarshiliklar, sinfiy kurash ongli ravishda tumanli qilib, pardalanadi. Mehnatkash xalqning o‘z ezuvchilariga; boylar, mingboshilar, savdogarlar, kolonizatorlarga qarshi inqilobiy qo‘zg‘olonlari

haqida indamay o‘tuladi. Yozuvchi ezilgan sinf ichidan ijobiy qahramon topishni ham o‘ziga ep ko‘rmagan.

Cho‘lpon o‘tmishdagi sinfiy kurashni ko‘rsatishni parnografiya bilan almashtiradi. Shu bilan sovet yoshlarini, o‘sib boruvchi bo‘g‘inni chirik nazariya bilan zaharlamoqchi, buzmoqchi bo‘ladi.

Cho‘lpon fahshlikni tasvirlaganda uning sosial-iqtisodiy negizini ohib berishni istamaydi. Asar odamni kishiliqdan chiqaruvchi, fahshni tug‘diruvchi kapitalizm qonunlariga, eski turmushga qarshi kishida nafrat tuyg‘usini qo‘zg‘atmaydi. Aksincha, eski davr durust edi, faqat ayrim kundoshlargina – Xadicha, Poshshaxon, Saltanatxonlar va fohishaxonalardagi xotinlarning o‘zлari yaramas, ular faqat jinsiy orom olish uchun yashaydilar degan natija chiqadi.

Romanda Turkistonni mustamlakaga aylantirgan chor hukumatining, kolonizatorlarning vahsiyona harakatlari, yerli mehnatkash xalqni ezishlari bilaturib pardalangan va kolonizatorlar yaxshi kishilar sifatida ko‘rsatigan. Chor hukumatining vakili sifatida berilgan kabi to‘rani Cho‘lpon juda muloyim, odamparvar, o‘zbeklarga yaxshi muomala qiluvchi, katta inqilobiy kayfiyatga ega bo‘lgan kishi ravishda ko‘rsatadi (o‘z oshpazi Zunnunga yaxshi munosabatini va uni mingboshi qilib tayinlaganini eslangu).

Yozuvchi “Kecha” orqali jadidlarning mafkurasini tarqatadi, ularga muhabbat bilan qaraydi. Jadidlarni “yaxshi” deb, zamonasining ilg‘or kishilar, deb tasvirlaydi.

Cho‘lpon ularni ham tashqi ko‘rinish tarafidan, ham ichki syezgi jihatidan boshqalarga qaraganda ancha yuqorida turgan madaniyatli, aqli, fazilatli, o‘rnak bo‘larlik kishilar deb tasvirlaydi; ularni xuddi xalq uchun, xalq manfaati uchun o‘zbek millati uchun kurashuvchi sifatida taqdim etadi. Bunga misol qilib jadidlashgan mingboshi Abdusamadni va Ovro‘pa mamlakatlari bilan savdo qiluvchi yosh jadid personajlarini ko‘rsatish mumkin.

Cho‘lpon jadidlarni tasvirlaganda niqoblanadi, jadidlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z tili bilan xarakteristika bermasdan bu vazifani asardan kishilarga yuklaydi. Cho‘lponning qahramonlari jadidlarni maqtab, ko‘klarga ko‘taradi.

Miryoqub Finlandiyaga savdo uchun boruvchi jadidni tubandagicha xarakterlaydi: “Mana men endi “jadidni” ko‘rib o‘tiribman. Erta-kech gapga qulog solaman; qulog‘imni uning og‘zidan uzib olmayman... bir yomon joyini ko‘rganim yo‘q. Gaplari hammasi ma’qul. Birovlarning mol-mulkiga chang solaturl‘anga o‘xshamaydi”.

Cho‘lpon shu ta’rif bilan chegaralanmaydi. Fohishaxonadan olib qochilgan Mariya (Maryam) ham jadidlarga xayrixoh. Mariya ongsiz, madaniyatsiz kishilarni jadidlar qanday qilib “tarbiyalaganiga qoyil” qoladi.

“Jakob (Miryoqub) ertadan kechgacha o‘sha bilan (jadid bilan demoqchi) gaplashadi. Men hech narsa anglamayman, o‘z tillarida gazetalar o‘qushadi. Yigit ruscha gazetalar o‘qub tushuntiradi. Bir tomondan olganda bu yaxshi; Jakobning fikri ochiladi. Odam bo‘ladi. Madaniyatlashadi”.

Jadidlar xuddi xalq manfaati uchun, Turkistonning milliy ozodligi uchun kurashuvchi qahramonlar, xalqning ko‘zini ochuvchi kishilar sifatida berilgan.

“Jadidning so‘zлari meni qo‘зg‘atib qo‘ydi; uning so‘zлarini men ham boshqalarga xuddi o‘shaning o‘ziday chiroylig va ta’sirli qilib gapirsam deyman odamlarning ko‘zini ochsam deyman...”.

Romanda tarixiy faktlar qastdan, bilaturib buzulib ko‘rsatilgan. Shaxsiy boyishlari yo‘lida kurashgan, shu maqsadlari yo‘lida har qanday ifloslikdan tortinmagan xalq dushmanlari va vatan xoinlari – jadidlarni xalqning haqiqiy o‘g‘illari sifatida tasvirlash tarixni qalbakilashtirishga urunishdan boshqa narsa emas. Cho‘lpon jadidlarni xalq uchun jon kuydiruvchi, inqilobiy kayfiyatga ega bo‘lgan kishilar deb tasvirlaydi, (Finlandiyaga ketayotgan jadidning so‘zлarini eslang). Holbuki, jadidlarning rus boylari, rus chinovniklari, chorizm bilan birga bo‘lib, ular bilan murosa qilganliklari, chorizm va mahalliy eksploratorlarga qarshi qo‘зg‘olon ko‘targan mehnatkashlarni dorga osish, surgun qilishda chor hukumatiga ochiqdan-ochiq yordam bergenlari tuzumga qarshi kurash o‘rniga o‘z maqsadlarini amaga oshirish uchun podshoh hukumatining mavjudligini bop bir sharoit deb anglaydilar va generallarning chinovniklarning malaylari bo‘lgan edilar.

Jadidlar jahon urushida chorizm bilan birlashib, do‘stlashib ketdilar. Oq podshohga jahon urushida g‘alaba qozonishni tilagan edilar. 1916 yilda mehnatkash xalq qo‘зg‘oltonni bosdirishda asosiy rolni o‘ynagan, oq podshohga madhiyalar aytgan qora kuchlar ham jadidlar edi. Ularning sinfiy basharasini bo‘yab xalq uchun jon kuydirishi, inqilobiy kayfiyatdagи kishilar ravishda berish tarixiy faktini bila turib bo‘yashdan boshqa narsa emas.

“Kecha va kunduz”da xotin-qizlar juda lavashang, bo‘sh, ko‘ngilchang, tez yig‘layturg‘an, jinsiy zavqqa intilaturg‘an qilib ko‘rsatiladi. (Masalan, Zebi, Sultonxon, Poshshoxon, Enaxon). Cho‘lpon xotin-qizlardan kuladi, ularni masxara qiladi; zulmga, xorlash, ezilishga qarshi kuchli nafrat bilan chiqqan mehnatkash, botir, kurashchan xotin-qiz obrazini ko‘rsatmaydi.

Xulosa. Cho‘lpon “Kecha”da kamabag‘al aravakash O‘lmasjon obraziga juda past nazar bilan qaraydi. Zebi mingboshiga tekkandan keyin O‘lmasjon jim bo‘lib ketadi. Uning qalbi o‘ti so‘ngan o‘choqday sovub ketadi. Buning bilan yozuvchi mehnatkashlarni masxara qilib, ularda sevgi yo‘q, ular odamgarchilikdan chiqqan deb tasvirlaydi. “Kecha va kunduz” romanining “Kecha” qismi o‘tmishni bir tomonlama olib, uni ham bo‘yagan; savdogarlar, mingboshilar o‘rtasidagi madaniyatsizlik, axloqsizlarni jadidchilik nuqtai nazaridan tanqid qilib, xususiy mulkning hukmronligi, ekspluatasiyaning haddan tashqari ekanligini jo‘rtaga ko‘rsatmaydi. O‘suvchi yosh bo‘g‘inga zararli, yoshlarimizni zaharovchi parnografiya asarda asosiy o‘rin olgan. Asarda haqiqat va baxt-saodat uchun, ozodlik-erkinlik uchun kurashuvchi xalq qahramoni yo‘q. Cho‘lpon o‘z asarida xalq dushmanlari – jadidlar, aksilinqilobchi millatchilarning qarashlarini talqin etib, millatchilik ideyalarini niqoblaydi va uni targ‘ib qiladi. Shunisi qiziqliki, O‘znashr tomonidan nashr qilingan “Kecha” hech qanday bosh so‘zsiz chiqqan. Holbuki asarni ko‘rib bergan o‘rtoq M.Hasan “Kecha”ning tub g‘oyalarini ochib beraturg‘an so‘z boshi yozmog‘i, albatta lozim edi. Cho‘lpon va uning fikrdoshlari o‘zbek xalqining o‘mishdagi inqilobiy kurash tarixini bila turib bo‘yab ko‘rsatish, mehnatkashlarni masxaralash, jadidlarni maqtash orqali aksilinqilobiy

millatchilikni targ‘ib etish va har turli meto‘dlar bilan sovet adabiyotiga zarar berish yo‘llarini qo‘llab keladilar. “Kecha va kunduz” asari shu targ‘ib usullaridan biridir.

Adabiyotlar

1. <https://hozir.org/nom-qoyish-sanati.html?page>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mingboshi>
3. <https://shosh.uz>
4. <https://qomus.info>
5. [↑ https://fayllar.org/ozbekiston-milliy-ensiklopediyasi-v2.html?page=10](https://fayllar.org/ozbekiston-milliy-ensiklopediyasi-v2.html?page=10)
6. [↑ http://ferlibrary.uz/f/kecha va kunduz.pdf](http://ferlibrary.uz/f/kecha va kunduz.pdf)

ABDULLA QAHHORNING TARIXIY HIKOYALARDAGI TARIXIY SO‘ZLAR RO‘YXATI

*Eshmamatova Umida Zuhriddin qizi, talaba, Chirchiq davlat pedagogika universiteti
umidaeshmamatova19@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning hikoyalariga va ularda uchraydigan ayrim tarixiy so‘zlarga to‘xtalib o‘tamiz. Abdulla Qahhorning bolalik yillari eng qiyin zamonlarga 1917-yil voqealari, Birinchi jahon urushi, mardikor olish voqealari, ocharchilik, ishsizlik, xullas, jamiyatda u tuzumdan bu tuzumga o‘tish davriga to‘g‘ri keldi. Abdulla Qahhor bolaligida ko‘rgan-kechirganlari assosida nodir asarlar yaratdi. Jumladan, “Boshsiz odam”, “Tomoshabog”, “Anor”, “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Dahshat”, “Qabrdan tovush” kabi original hikoyalar yozdi. Abdulla Qahhor “Xotinlar”, “Asror bobo”, “Ming bir jon”, “Mahalla” hikoyalarida zamondoshlarining ma’naviy dunyosini, insoniy xislatlarini, axloqiy pokligini, ruhiy go‘zalligini ko‘rsatishga alohida e‘tibor bergan. “O‘g‘ri” hikoyasida “Otning o‘limi itning bayrami” maqoli epigraf qilib olingan. “Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi” – kabi misralar shu hikoyadan olingan. “O‘g‘ri” hikoyasida “Begin deguncha belim sinadi”, “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”, “Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz”, “Kuruq qoshiq og‘iz yirtadi”, “O‘ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan” kabi maqollar qo‘llangan. “Bemor” hikoyasida vafot etgan ayol taqdir qo‘li kalta Sotiboldining ahvoli, uyquga to‘ymagan, hali aniq shakl olmagan jujuq tilda onaizoriga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi “begunoh go‘dak” – qizcha holati bayon etilgan. Bu hikoyaga “Osmon yiroq, yer qattiq” maqoli epigraf qilib olingan. Adabiy ta’lim jarayoni Abdulla Qahhor asarlari bilan mazmunga boy, ma’rifatga to‘la bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: o‘g‘ri, ellikboshi, pristav, amin, baxshi, arbob, doddoh kabilar.

Abdulla Qahhorning bolaligida unga va uning oila a’zolariga nisbatan bildirilgan mana shunday sovuq munosabatlар bo‘lg‘uvsi adibning kamgap, vazmin, indamas bo‘lib qolishiga sababchi emasmikan, deb o‘ylaymiz. Abdulla Qahhorning bolalik yillari eng qiyin zamonlarga 1917-yil voqealari, Birinchi jahon